

**JONATHAN SVIFTNING GULIVERNING SAYOHATLARI ASARINING  
QIYOSIY TARJIMADAGI TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI.**

*Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Maqola Jonathan Swiftning Guliverning sayohatlari asaridagi transformatsiya turlarini keng yorigan. Maqolani o'qish davomida leksik, grammatik, hamda stilistik ma'no turlari haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari tahlilda berilgan transformatsiya misollri, bu tarjima turlarini yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi.*

**KALIT SO'ZLAR :** *tahlil, tarjima, transformatsiya, tur, izoh, leksika, grammatika, stilistika, ma'no, o'zgarish, metod.*

**KIRISH:** Gulliverning sayohatlari — Jonathan Swift tomonidan yozilgan asar. Bu roman satiriko-fantastik janrida yozilgan. Asarning to'liq nomi „Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga awalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari“ Roman 1726-1727 yillarda, Londonda birinchi marta nashr qilingan. Asar to'rt qismdan iborat. Asarning birinchi qismida yozuvchi lilliputlarning o'zini hammadan yuqori qo'yishlari ustidan kuladi. Ikkinchi qismda, devqomat odamlar davlatida, nuqtai nazar o'zgaradi. Kema shifokori, Lemuel Gulliver, „Lilliputiya“ davlatiga tushib qoladi. U yerda odamlardan o'n ikki marta kichkina bo'lgan odamchalar yashaydi. Ular Gulliverni asirga oladilar. Keyinchalik u lilliputlarga itoat qilishga so'z beradi va Lilliputiya shohi uni ozod qiladi. Lilliputlar Gulliverni xushmuomalik bilan qabul qiladilar. Unga yashashga joy beradilar va ovqat bilan ta'minlab turadilar. Uning kattaligi uchun, unga „Tog' Odam“ ismini beradilar. Asta-sekin Gulliver davlat hayoti bilan tanishadi. Ularning hayoti, yevropaliklar hayotidan umuman boshqacha tuzilgan bo'ladi. U Lilliputiya davlatida ikki partiya mavjudligini va biri ikkinchisidan har xil balanlikdagi poshna kiyishi bilan farqlanishini bilib oladi.

Ular orasida doim shavqatsiz baxslar kelib chiqaveradi. Oradan oz vaqt o'tib Lilliputiya va Blefusku davlatlari o'rtasida jang boshlanadi. Urushga sabab, pishgan tuxumni qaysi tarafidan (uchli tarafidanmi yoki tekis tarafidan) sindirgan ma'qulroqligi haqida baxs bo'ladi. Gulliver Lilliputiya davlatining g'alaba qozonishiga yordam beradi. Blefusku qiroli Gulliverni o'z davlatiga taklif qiladi. U taklifni qabul qiladi. Gulliver Lilliputiyaning qahramoni hisoblanadi, unga „nardak“ unvoni (mamlakatdagi eng baland unvon) beriladi. Lekin keyinchalik Lilliputiya uning dushmanlari paydo bo'ladi. Ular Gulliverni xiyonatlikda ayblaydilar. Gulliverni birinchi ko'r qilib, keyin ovqatini kamaytirib ochdan o'ldirmoqchi bo'ladilar. Lekin Gulliverning do'stlari uni vaqtida ogohlantiradilar va Gulliver Blefusku qochishga majbur bo'ladi. U yerda qayiq topib oladi, uni ta'mirlaydi va Blefusku tark etadi. Yo'lida kemani uchratadi va Angliyaga qaytib keladi. Gulliver uyiga kichkina qo'ychalar olib keladi.

**ASOSIY QISM :** Ta'kidlash joizki har bir matn bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinar ekan, ushbu jarayon davomida albatta ayrim turdagi o'zgarishlar sodir bo'lishi shubhasizdir. Quyida ana shu o'zgarishlarga alohida –alohida to'xtalib o'tilgan. My father had a small estate in Nottinghamshire; I was the third of five sons. He sent me to Emanuel College in Cambridge, at fourteen years old, where I resided three years, and applied myself close to my studies... ingliz tilida shunday misra berilgan, buning tarjimasi esa, Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'lmagan mulki bor edi. Yoshim o'n to'rtga to'lganda otam meni Kembrij shahridagi Imanyuel kollejiga o'qishga yubordi. U yerda uch yil bilimlarni zo'r hafsala bilan o'rgandim. Tarjimasi esa quyidagi misralar orqali izohlangan. Ushbu parchada esa leksik transformatsiya turiga mavjud Transliteratsiya izohlangan. Nottinghamshire, Emanuel College, Cambridge so'zlari tarjima jarayonida o'zbek tiliga quydagicha Nottingemshir, Imanyuel, Kembrij kollej moslashtirilgan orqali izohlangan. But the charge of maintaining me, although I had a very scanty allowance, being too great for a narrow fortune, I was bound apprentice to Mr. James Bates, an eminent surgeon in London, with whom I continued four years; Tarjimasi : Biroq, kollejda o'qishim

uchun mablag‘ yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun meni u yerdan olib, Londondagi mashhur vrach Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to'rt yil ta'lim oldim. Tahlil : Whom obyekt olmoshi tarjima jarayonida tushib qolib, uning vazifasini kishilik olmoshi öziga kelishikni orttirib bajaryapti.[1,2] I heard one of them cry aloud, Tolgo phonac; when in an instant I felt above a hundred arrows discharged on my left hand, which pricked me like so many needles; and besides they shot another flight into the air, as we do bombs in Europe, whereof many, I suppose, fell on my body (though I felt them not) and some on my face, which I immediately covered with my left hand. Tarjimasi : Shovqin tingach, kimningdir “Tollgo fonak!” deb xitob qilganini eshitdim. Shu zahotiyoyq yuzlarcha yoy o‘qlari chap qo‘limga sanchilganini sezdim. O‘qlar menga ignadek sanchilardi. Yangidan yana o‘q uzishdi. Endi ular, bizning Yevropada bomba otganday, osmonga qarab o‘q uzishardi. Tanamga (garchi buni uncha sezmasam-da) o‘q yomg‘iri yog‘ildi. Bir necha o‘q yuzimga kelib tegdi, yuzimni qo‘lim bilan to‘sib oldim. Diqqatpazlik va og‘riqdan ingradim, bo‘shalish uchun yana harakat qildim. Tahlili : Simile – day dek qo‘shimchalar yordamida tarjima qilinishi. I attempted to rise, but was not able to stir; for, as I happened to lie on my back, I found my arms and legs were strongly fastened on each side to the ground; and my hair, which was long and thick, tied down in the same manner. I likewise felt several slender ligatures across my body, from my arm-pits to my thighs.(18 – bet ). Tarjimasi : Men o'rnimdan turmoqchi bo'ldim, biroq qimirlay olmadim. Qo'l-oyoqlarim yerga mahkam chirmab tashlanibdi; o'zim chalqancha yotardim. Uzun va qalin sochlarim ham yerga bog'lab tashlangan edi. Ayni paytda butun gavdam — qo'ltig'imdan sonimgacha ingichka chilvirlar bilan tortib bog'langanligini sezdim. Tahlil esa quyidagicha : Gapda bir uyaga mansub so'zlarning ketma ket ishlatilishi kuzatilgan . Bu ham leksik transformatsiya turiga kiradi.[3] Three days after my arrival, walking out of curiosity to the northeast coast of the island, I observed, about half a league off in the sea, somewhat that looked like a boat overturned. I pulled off my shoes and stockings, and wading two or three hundred yards, I found the object to approach nearer by force of the

tide; and then plainly saw it to be a real boat, which I supposed might by some tempest have been driven from a ship; whereupon I returned immediately towards the city, and desired his imperial majesty to lend me twenty of the tallest vessels he had left after the loss of his fleet, and three thousand seamen, under the command of his vice-admiral. Tarjimasi : Endi bu mamlakatni qanday tark etganimni hikoya qilaman. Lekin men, awalo, ikki oy mobaynida menga qarshi olib borilgan maxfiy fitnalarni o'quvchiga ma'lum qilishni o'rinli deb hisoblayman. Tahlili : Tarjima jarayonida murakkab gap ikkita sodda gap tarzida tarjima qilingan . Tarjimada ma'no umumlashtirilgan va ba'zi gap va so'zlar tushib qolgan. He often builds his largest men of war, whereof some are nine feet long, in the woods where the timber grows, and has them carried on these engines three or four hundred yards to the sea. Five hundred carpenters and engineers were immediately set at work to prepare the greatest engine they had. Tarjimasi : Bu yerda, qurilishbop yog'och beradigan o'rmonzorlar bor joyda, uzunligi to'qqiz fut keladigan eng yirik harbiy kemalar qurish odat tusiga kirib qolgan ekan. Keyin kemalarni ana shu mashinalarga yuklab, dengizga olib borishar ekan. Besh yuz duradgor va injenerga darhol ana shu mashinalardan eng kattasini yasash topshirilgan ekan. Tahlili : Bu yerda ingliz alifbosidagi W harfi bilan Alliteratsiya bo'lgan.[4]

**XULOSA** : Tahlildan kelib chiqib, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barcha o'zgarish turining ham o'z ahamiyati bor ayniqsa tarjima jarayonida bu muhim kasb etadi. Ya'ni ularning barchasi ham tarjima jarayonini soddalashtirish, tushunuvchanligini oshirish shu bilan birga uning qiymatini oshirish uchun xizmat qiladi. Ushbu o'zgarish turlarini yaxshilab ajratib olish uchun ular haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish kerak.

#### **REFERENCES:**

1. Muxiddinov, O. N. U., Nabiev, S. M. U., & Achilov, O. R. (2022). CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES IS ONE OF THE EXPRESSIVE MEANS OF FOREGROUNDING. Academic research in educational sciences, 3(10), 568-571.

2. Samandarov, S. U. O., Ortiqov, M. I. O., & Achilov, O. R. (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY DEVICE. Academic research in educational sciences, 3(10), 538-541.
3. Rustamovich, A. O. (2023). TARJIMADAGI MUAMMOLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 187-193.
4. Achilov, Oybek Rustamovich, & Inog'Omjonova, Robiya Rustamjon Qizi (2023). THE ROLE OF LEXICAL TRANSFORMATION IN THE TRANSLATION PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 288-294.